



UDK:82(043):821.512.133)

Dilfuza XATAMOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.d

E-mail: xatamovadilfuza73@gmail.com

O'zFA professori, F.F.D U. Xamdam taqrizi asosida

THE FUNCTIONING OF THE GENERAL AESTHETIC PRINCIPLE IN THE POETICS OF THE LITERARY PROCESS

Annotation

In this article, poetics is examined as a manifestation of the general aesthetic principle of the literary process, and its semantic boundaries across different historical periods, as well as the formation of the foundations of theoretical poetics, are studied from a scientific and theoretical perspective.

Key words: Poetics, word, language, text, form, author, idea, work (or literary work), literary process, general aesthetic principle.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ ОБЩЕЭСТЕТИЧЕСКОГО ПРИНЦИПА В ПОЭТИКЕ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

В данной статье поэтика рассматривается как общеэстетический принцип литературного процесса, а также исследуются его смысловые границы в качестве понятия, самостоятельной категории, а затем и науки в разрезе эпох и формирование основ теоретической поэтики.

Ключевые слова: поэтика, слово, язык, текст, форма автор, идея, произведение, литературный процесс, общеэстетический принцип.

ADABIY JARAYON POETIKASIDA UMUMESTETIK TAMOYILNING NAMOYON BO'LISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada poetika adabiy jarayoning umumestetik prinsipi sifatida namoyon bo'lishi va o'z ma'no qamrovi chegaralarini davrlar kesimida belgilashi va nazariy poetika asoslarini yaralishi ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Poetika, so'z, til, matn, shakl, muallif, g'oya, asar, adabiy jarayon, umumestetik prinsip.

Kirish. Antik va o'rta asr allomalari adabiyotning asosini mifda deya talqin qilishadi, bu borada mifologiyada so'zning ilohiyligi ushbu qarashlarning rivojini muayyan ma'noda belgilab beradi. Binobarin, so'zni adabiyotning asosiy kategoriyasi sifatida ko'rsatilishi ham tabiiydir. Masalan, qadimgi Hindistonda so'z Braxman bilan tenglashtirilgan, antik va o'rta asrlarda Yunonistonda ham so'z ilohiylashtirilgan. Aynan shu jihat ilmiy qarashlarning nazariy rivojiga ancha vaqtgacha yo'l qo'ymadi. Poetika haqida so'z yuritilgan ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, antik davr va o'rta asr allomalaridan farqli o'laroq, Sharq olimlari so'zning ilmiy-nazariy tadqiqini miloddan avval I asrda sanskrit miflarini sheva tillariga tarjima qilish jarayonida boshlab yuborishgan. Ellinizm davri adabiyoti muallifga so'z ustida ishlash talabini qo'yadi. Bu holat dunyo adabiyotshunosligida Renessans davrigacha davom etdi. Bunga dalil sifatida aytish joizki, ritorika bo'yicha ko'plab ilmiy manbalar yaratildi. O'z navbatida, ritorika birlamchi bo'lib, poetika uning tarkibidagi bo'lim sifatida qaraldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XVII asr klassitsizm adabiy yo'nalishi vujudga kelishi bilan belgilanib, unga ko'ra ratsionalistik qoidalar sahnaga chiqadi. Bu borada N. Bualoning "Poetik mahorat" asari ahamiyatlidir. Goratsiy g'oyalarga amal qilib: "Учите мудрости и стихе живом и внятном, / Умея сочетать полезное с приятным" [1], deb ta'kidlaydi. Faylasuf she'riy satrlarda lozim va zarif fikrlar orqali donolikka o'rgatishni da'vat etadi. Klassitsizmning asosiy qoidasi aqlga quloq tutish: "...Обдумать надо мысль

и лишь потом писать. / Пока не ясно вам, что вы сказать хотите, / Простых и точных слов напрасно не ищите..." [1,9]. N.Bualo o'sha davrdayoq poetikaning asosi bo'lgan kategoriyalarini, ya'ni mazmunning shakl bilan, uning kompozitsiyasi, asar qismlarining o'zaro dialektik bog'liqligini ta'kidlagan: "Поэт обдуманно все должен разместить, / Начало и конец в поток единый слит..." [1]. "Poetik mahorat" asarida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan uch janr haqida so'z boradi, ya'ni fojia, epopeya va komediya. Olim lirik janrlarni ikkinchi darajali deb hisoblaydi. N.Bualo poetik qarashlarining tarafdorlari I.I.Gotshed, V.Trediakovskiy bo'lib, jumladan, I. Gotshedning "Olmonlar uchun tanqidiy poetika tajribasidan" ("Опыт критической поэтики для немцев") olmon shoirlari uchun amaliy ko'rsatmalarni ishlab chiqishga harakat qilishi bilan ahamiyatlidir. V. Trediakovskiyning "Rus she'riyati yaratilishining yangi va qisqa usuli" ("Новый и краткий способ к сложению российских стихов с определениями до сего надлежащих знаний") nomli asarida rus she'riyatining o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqildi. M. Lomonosov ijodiy izlanishlari klassitsizmning ratsionalistik ruhiyatiga mos kelmagan, A. Sumarov, N. Bualoning poetikasi ta'sirida shoirlarni asar mazmunini ifoda qilishda soddalik va aniqlikka chorlaydi. U o'zining "G'ayritabiiylik haqida" ("О неестественности") nomli tadqiqotida shoirlarni balandparvoz, jimjimador so'zlarni ishlatganlikda ayblaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. XVIII asr poetikasi tarkibida she'riy asarlar qatorida nasriy asarlar ham tahlilga tortila boshlandi. Bunda olmon mumtoz adabiyoti vakillari G. Lessing va Gegelning xizmatlari beqiyos. G. Lessing Arastu "Poetika"ga murojaat qilib, adabiyotning taqlid san'ati sifatida qabul qilinishi haqidagi g'oyasini qo'llab-quvvatladi. Jumladan, "Laokoon yoki tasviriy san'at va poeziya chegaralari haqida" ("О границах живописи и поэзии") asarida u adabiyotni haykaltaroshlik va rassomchilik bilan qiyoslab, bular ichida aynan poeziyaning hayot bilan bog'liqligini ta'kidlaydi, uning inson taqdirini o'sha zamon va makonning o'ziga xos jihatlariga bog'liqligini ko'rsatib o'tadi. Gegel "Estetikadan ma'rulalar"ida "ichki tasavvur, tafakkur va tuyg'u sohasida she'riyatning o'zi haykaltaroshlik va rasmga xos bo'lgan ishonchni yo'qotmaydigan va boshqa har qanday san'atga qaraganda, ancha to'liqroq taqdim eta oladigan keng obyektiv dunyoni yaratib, hodisaning yaxlitligi, ketma-ketligi, aqliy o'zgarishi kayfiyat, ehtirolar, g'oyalar va har qanday harakatlarning tugallanganligini anglatadi"[2], deb adabiyotning o'rnini belgilab beradi va "She'riyat bir vaqtning o'zida parchalana boshlangan va falsafiy bilimlar uchun diniy g'oyalarga, shuningdek, ilmiy tafakkur nasriga o'tish nuqtasini topadigan maxsus san'at bo'lib chiqadi" [2], deb adabiyotni inson sivilizatsiyasida muhim o'rin tutgan din, e'tiqod va an'analar bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Arastuning izidan XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida olmon estet olimlari poetika va tarixning vazifalarini ajratib beradi. Jumladan, V. Shlegel, I. Gerder poetik adabiy turlar haqida nazariy fikrlar bildirishgan, ular har bir tur haqida alohida izlanishlar olib borib, janrlar taraqqiyoti borasida qiyosiy-tarixiy tavsiflar berishgan. G. Gegel dramaning tahlilini amalga oshirib, janriy, kompozitsion va badiiy vositalarini ko'rib chiqadi. Aynan shu davrda adabiyotdan badiiy adabiyotni ajratish bo'yicha jiddiy ishlari qilinadi. Bunga go'zallik kategoriyasining tadqiqi turki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi, keng ma'noda poeziya nomli alohida predmet belgilanib, u haqidagi ilm adabiyotshunoslik deb ajratiladi. Demak, ungacha poetika haqidagi fikrlar ko'rsatmalar tarzida ritorika ilmi tarkibida bo'lsa, endilikda badiiy adabiyot haqidagi ilm, ya'ni adabiyotshunoslik mustaqil maqomni egallagan fan tarmog'iga aylandi. Adabiyotshunoslikning alohida fan sifatida ajralish hodisasi, badiiy asarlar tahlili tanqidchilar tomonidan ilmiy izohlanib, asosiy diqqat-e'tibor uning estetik jihatiga qaratildi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mumtoz idealizm davri olmon olimlari tomonidan ishlab chiqilgan estetika kelajakda adabiyot nazariyasining rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi, Baumgartenning "Estetika", "Poeziya haqida falsafiy mulohazalar" asarlari, Gegelning "Estetika"si shular jumlasidandir. Shubhasiz, qayd qilingan asarlar "adabiyot nazariyasidan [2,11] darsliklar bo'lib, ular adabiyot tarixi bilan ham bog'liq edi. Estetik qamrovning kengligi va ularning shu jihatdan baholanishi nihoyatda torligi sabab adabiyot tarixining vazifalarini aniqlashtirishga imkon bermas edi. XIX asrning 40-yillarida vujudga kelgan tarixiy yo'nalish estetik mezonni inkor qilib, adabiyotni faqat umumtarixiy metod nuqtayi nazaridan o'rgandi. Ya'ni badiiy ijod adabiyotning tarixiy bo'limini o'rganish predmetiga aylanishi lozim edi. Bu an'ana keyinchalik madaniy-tarixiy maktab tarafdorlari tomonidan qo'llanildi. Bu maktab tarafdorlari adabiy jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganib, ularni badiiy asar mazmuni, tarixiy voqealik va jamiyatdagi qadriyatlar bilan bog'liqligini ta'kidladi. Biografik metod tarafdorlari ushbu yondashuvda falsafiy-estetik tanqidchilar qarashlariga tayanib, E. Kant fikrlari negizida diqqat-e'tiborini muallif shaxsiga qaratdi va asarning o'ziga xos tomonlarini aynan shu omil bilan bog'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, adabiyotshunoslikda poetik jihatdan XIX asrning eng yirik ikki maktabi ikki xil pozitsiyani egalladi.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, poetika umumestetik prinsip va termin sifatida Arastu tomonidan kiritilib, keyinchalik poeziya (adabiyot)ga, ya'ni badiiy adabiyot doirasida anglanib, XIX asr o'rtalarigacha estetik kategoriya sifatida qabul qilingan. XX asr adabiyotshunosligida rus olimi A. Veselovskiy terminning ma'no qamroviga o'zgartirish kiritib, tarixiy poetika tushunchasini qo'lladi va kelajakda u nafaqat adabiyot nazariyasi, balki dunyo adabiyoti tarixi konsepsiyasida termin sifatida o'rnini belgiladi. Bu borada A. Veselovskiyning "Tarixiy poetika" asari ahamiyatlidir. Olimning maqsadi adabiyot tarixini maxsus ilm darajasiga ko'tarish edi. Buning uchun esa poetika rivojini diaxronik yondashuv asosida o'rganish lozim bo'lib, u o'z oldiga quyidagi maqsadni qo'ydi: "adabiyot tarixi metodikasi poeziya mohiyatini uning tarixi orqali anglash va ongli tuzilmasini bartaraf etadigan induktiv poetika uchun material yig'ishdir"[3]. Tarixiy poetika tushunchasi termin sifatida tadqiq qilinarkan, poetikaning mohiyatini aniqlash uchun uning vujudga kelish va rivojlanish tarixini o'rganish lozim. Poetika tushunchasi ikki ma'no, ya'ni "adabiyot haqida ilm va poetik san'at" ni[7] anglatib, adabiyotshunoslikda birdek faol qo'llaniladi. Binobarin, nazariy poetika, birinchi navbatda, adabiyot haqidagi ilmga, tarixiy poetika poetik san'atga e'tibor qaratadi, chunki tarixiy poetika ma'no qamroviga nafaqat adabiy kategoriyalarning genezisi va evolyutsiyasini, balki badiiy so'zning shakllanish tarixini izchil o'rganishni nazarda tutadi. O'zbek adabiyotshunosi U. Jo'raqulov monografiyasida "Poetik sinkretizm, sintetizm va differentsiatsiya jarayonlarini o'rganish natijasi o'laroq maydonga keladigan nazariy mezonlar tizimi esa shu oltin qoidadan quvvat oladiki, bunday uyg'unlashtiruvchi fenomen adabiyotshunoslikda tarixiy poetika istilohi ostida tushuniladi" [4] ta'rifi bilan tarixiy poetika adabiy jarayon doirasida, tarixiylik hodisalarini diaxronik kesishmada o'rganilishi adabiyot ilmining to'liq manzarasini berishini e'tirof etadi va har qanday badiiy-estetik hodisa an'anaviy, ya'ni tarixiylikni dalilaydi. O'zbek olimi buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning "Xamsa" asarida xronotop poetikasi xususiyatlariga diqqatini qaratarkan, bugun tarixiy poetikaning qator nazariy mezonlari, tadqiqot yo'sinlari ishlab chiqilgani xususida so'z yuritib, tarixiy poetika ilmining genezisi qadimiy Yunonistonga borib taqalishini, u usul sifatida "aksariyat milliy adabiyotlar, jahon xalqlari badiiy tafakkuri silsilasida adabiy-tarixiy amaliyot va nazariyani uyg'unlashtiruvchi quvvat manbai o'laroq"[4,8] yashab kelishini ta'kidlaydi. Nazariy poetika ta'limotlar ichra adabiy hodisalarning shakllangan qonuniyatlar darajasidagi xususiyatlarini, ulardagi turli o'zgarishlarni izohlasa, tarixiy poetika bu hodisalarning qachon, qanday va nima sababdan kelib chiqqanini, "narsaning tarixan uch tarkibli zamon-makonda shakllanish jarayoni"[4] ni o'rganadi. Shu sababdan tarixiy poetika adabiyot nazariyasi, hatto yaxlit adabiyotshunoslik ilmining poydevori hisoblanadi. Bu ikki talqin yo'li uyg'unlashgan nuqtada sof nazariy adabiyotshunoslik ilmi maydonga keladi.

Tarixiy poetika vazifalari A. Veselovskiy tomonidan quyidagicha belgilandi: "yangi ruhiyat tasviri bo'lmish hayotni idrok etishning yangi shakllari, o'ta muhim bo'lgan qadimgi obrazlar qamroviga singadi"[3]. Demak, tarixiy poetika mana shunday an'anaviylikka xos qonuniyatlarni o'rganadi va termin sifatida o'z ma'no qamroviga singdiradi. Umumestetik, umumnazariy mohiyatni anglatuvchi xulosalar qilishda tarixiy poetika insoniyat estetik tafakkuri doirasidan chiqib, yuksak ideallar, umumbashariy qadriyatlar kabi manzillar sari yetaklashga qodir.

Nazariy poetika vazifalari tadqiqi V. fon Gumboldt, keyinchalik A.A.Potebnya, R.Myuller-Freyenfels kabi olimlar nomi bilan bog'liq. V.fon Gumboldt o'zining "Tillarning tabiati. Nazm va nasr" asarining bir bo'limini poeziyaga

bag'ishlaydi. "Insoniyat tillari tuzilishining farqi va uning inson ruhiyatiga ta'siri haqida"gi bo'limida poeziya va prozani olim borliqni anglashning o'ta murakkab shakllari deb ta'riflaydi. Shaki deganda muallif ijodiy maqsadiga yo'naltirilgan maxsus tashkillashtirish nazarda tutilishini ta'kidlaydi. V. Gumboldt muallif g'oyasiga bo'ysunuvchi shaki, asar strukturasi haqida fikr yuritib, poeziya va proza uning fikricha, "til namoyishi" va uning doimiy taraqqiyotidagi asl mohiyatini bildiruvchi vositadir. V. Gumboldt ushbu til namoyishini muallifning intellektual tafakkuri bilan bog'lab: "Adabiyot tilining gurkirashi dunyo tafakkurini o'z mohiyati bilan birlashtirib, hamohang yaxlitlikka chorlovchi ruhiy intilish orqali amalga oshishi mumkin"ligini [5,189] ta'kidlaydi. Buyuk olimning fikricha, badiiy adabiyot tilning eng mukammal va yuqori cho'qqisidir. A. Potebnya til va tafakkur bog'liqligi haqida shunday to'xtamga keladi: "Binobarin, so'zda ikki ma'no mavjud: biri – o'z ichiga faqat yagona belgini olib, obyektiv deb nomlanuvchi bo'lsa, ikkinchisi – subyektiv mazmun bo'lib, bir necha sifatni sig'dirishi mumkin"[7,296]. Olim so'zning etimologik jihati nazariy poetikaning asosiy aspektlaridan biri sifatida belgilab, ularning subyektiv ma'nosi inson tafakkuridagi assotsiatsiya va analogiyalar orqali vujudga kelib, uning ichki shakli tafakkurdagi obrazlar bilan bog'lash natijasida yuzaga kelishi haqida so'z yuritadi.

A. Potebnya V. fon Gumboldt g'oyalarini davom ettirar ekan, "Nazariy poetika" asarida so'z san'atini boshqa san'at turlari bilan qiyoslaydi va bu borada tamomila G. Lessing g'oyalariga qo'shilib, poeziya harakatni tasvirlaydi, degan xulosaga keladi. A. Potebnya poetikani so'zning ichki shakli haqidagi Gumboldtning ta'limoti bilan bog'lab, "so'zning ichki shakli adabiy asarning poetik tili obrazlilik manbasidir" [7] deb ta'kidlaydi. Olim obrazning xususiyatlarini o'rganar ekan, uni muallif ijodiy niyatiga qarab o'zgarishi mumkinligini, bu holat asar mazmuni va g'oyasining o'zgarishiga olib kelishini aytadi. Asarning shakli haqidagi qarashlar XX asrning boshida ommalashdi va bunga formalizm g'oyalari sabab bo'ldi. Demak, nazariy poetikaning asosiy vazifasi poetik kategoriyalar mohiyatini tushuntirib berishdir. Tarixiy poetika esa aynan shu nazariyada mavjud tafavutlarni tarixiy jihatdan asoslab, bartaraf qilishga qaratilgan.

XX asrning boshlarida ОРОУАЗ – poetik til o'rganish jamiyati (Общество изучения Поэтического языка) poetikaga oid masalalarni o'rganar ekan, san'at turli usul va metodlar yig'indisi natijasida yaralishini e'tirof etadi. 1987-

yilda nashr qilingan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da formalistik tendensiyalarni normalardan chekinish deb ataydi: "adabiyotning real ijtimoiy hayotdan ajralishi formal masalalarining buzilishiga, mazmuni torayishiga yoki butkul "yo'q" bo'lib ketishiga olib keladi"[6,472]. Ularning fikricha, muallif tasviriy ifoda vositalarini ishlatish poygasida mazmunga daxldor komponentlarni e'tiborsiz qoldirar edi. Poetik matn "sun'iy" bo'lib, u olamni chuqur idrok etish, hislarni to'liq ochib berolmaslik oqibatida ijodkor asl mohiyatni kitobxonga yetkazib berolmaydi. Formalizmning g'oyalarini struktural poetika davom ettirdi. Ularning yorqin namoyandasi Y. Lotman edi. Ularning talqinicha, badiiy matn go'yo kristall, uning alohida qismlari birlashib, yaxlitlikni vujudga keltiradi, shunday stilistik shaki yaratish kerakki, u asar mazmun- mohiyatini ochib berishga xalaqit bermasin. Yana bir jihati borki, bu yo'nalishga semiotik qarashlar ham o'z ta'sir kuchini o'tkazdi. Bu esa poetik matnni boshqa bir aspektdan o'rganishga olib keldi [6,373]. Poetik matn belgi, ya'ni badiiy asarda ma'lum bir tizimda joylashgan belgilar nuqtayi nazaridan ko'rildi. Bu belgilar faqatgina o'sha badiiy matn doirasida ko'zlangan ma'noni berishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, matn sistema sifatida badiiy asarning mohiyatini to'laroq ochib berishga qodir. Ushbu fikrimiz isbotini V. Ivanov, B. Uspenskiy, A. Pyatigorskiy, V. Toporov ishlarida ko'rish mumkin. Ularning fikricha, til ma'lum ma'nodagi kod bo'lib, u matnning mazmun-mohiyatini ochishga xizmat qiladigan kalit vazifasini bajaradi, kitobxon tomonidan beriladigan talqinlarni inobatga olishga imkon beradi. O'ylashimizcha, bu har bir kitobxon konseptosferasining individualligidan kelib chiqqan holat bo'lib, u yoki bu voqelikning idrok etilishi, dunyoqarashning tor yoki kengligi, tafakkuri, hayotiy tajribasi va mentallik muammolari bilan bog'liq. Shunday qilib, formalistlar va strukturalistlar tomonidan ishlab chiqilgan yangi g'oyalar poetika terminini stilistika tushunchasiga almashtirdi. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, V. Kojevnikov tahriri ostida chiqqan ensiklopedik lug'atda stilistikaga – "часть поэтики"[4] deb izoh berilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda poetika haqida muayyan janr yoki yozuvchi doirasida so'z yuritiladi (roman poetikasi, drama poetikasi, A. Qodiriy poetikasi, U. Hamdam poetikasi). Bunda tahlilga tortilgan janr yoki yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladigan badiiy vositalar nazarda tutilgan. Keng ma'noda u yoki bu yo'nalish doirasidagi poetika haqida fikr yuritiladi (modernizm poetikasi, klassitsizm poetikasi).

ADABIYOTLAR

1. Буало Н. Поэтическое искусство. – М.: Государственное издательство художественной литературы (ГИХЛ), 1957.
2. Введение в литературоведение. Хрестоматия. – М.: Высшая школа, 1988.
3. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989.
4. Жўракулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси. Монография. – Тошкент: Турон-Икбол, 2017.
5. Избранные труды по языкознанию. Вильгельм фон Гумбольдт. – М.: Прогресс, 2000. – С. 189.
6. Литературный энциклопедический словарь / Под общ. ред. В. Кожевникова, П. Николаева. – М.: Сов. энциклопедия, 1987.
7. Потебня А.А. Теоретическая поэтика / Сост., вступ. ст., ком м ент. А.Б. Муратова. – М.: Высш. ш к., 1990.
8. Теория литературы. Под ред. Н.Д.Тамарченко. Т. 2. – М.: Академия, 2008.